



HISTORICAL REALITIES AND PHILOSOPHICAL IDEALS: DIALOGUES ACROSS DISCIPLINES

**INTERNATIONAL SCIENTIFIC-PRACTICAL
CONFERENCE**

**TASHKENT, SEPTEMBER
20, 2025**

**MINISTRY OF HIGHER EDUCATION, SCIENCE
AND INNOVATION OF REPUBLIC OF UZBEKISTAN
TASHKENT STATE UNIVERSITY
OF ORIENTAL STUDIES**

**RESEARCH CENTER FOR THE STUDY OF EASTERN
CULTURE AND HERITAGE**

**HISTORICAL REALITIES
AND PHILOSOPHICAL IDEALS: DIALOGUES ACROSS
DISCIPLINES**

**INTERNATIONAL SCIENTIFIC-PRACTICAL
CONFERENCE**

Tashkent, September 20, 2025

IBN MISKAVAYH SHAXS KAMOLATI KONSEPSIYASINING IJTIMOYIY AHAMIYATI VA PRAKSIOLOGIK JIHATLARI

Shahnoza Sulaymonova

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti o'qituvchisi

Kalit so'zlar: Axloq, praktsiologiya, akmeologiya, shaxs kamoloti, "Tahzibul axloq" ma'naviy tarbiya, axloqiy me'yorlar, ma'naviy uyg'unlik, ijtimoiy-etika, liderlik, axloqiy rivojlanish.

Annotatsiya: Mazkur maqola Ibn Miskavayh shaxs kamoloti konsepsiyasining ijtimoiy ahamiyati va praktsiologik jihatlarini o'rganishga bag'ish-langan bo'lib, unda mutafakkirning shaxs rivojlanishi va jamiyat taraqqiyoti o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik haqidagi qarashlari tahlil qilinadi, falsafiy va kontseptual asoslar yordamida yoritiladi. Ushbu konsepsiyaning ijtimoiy ahamiyati va praktsiologik yo'nalishi hozirgi davr ehtiyojlariga ham javob bera olishi to'g'risida so'z yuritiladi.

SOCIAL SIGNIFICANCE AND PRAXIOLOGICAL ASPECTS OF IBN MISKAWAYH'S CONCEPT OF PERSONAL PERFORMANCE

Shahnoza Sulaymonova

Lecturer, Tashkent State University of Oriental Studies

Key words: Ethics, praxeology, acmeology, personal development, "Tahzibul Akhloq" spiritual education, moral standards, spiritual harmony, socio-ethics, leadership, moral development.

Abstract: This article is devoted to the study of the social significance and praxeological aspects of Ibn Miskawayh's concept of personality development, in which the thinker's views on the relationship between personal development and social development are analyzed, and illuminated using philosophical and conceptual foundations. It is discussed whether the social significance and praxeological direction of this concept can also meet the needs of the present era.

KIRISH

Ibn Miskavayhning shaxs kamoloti haqidagi qarashlari nafaqat falsafiy, balki ijtimoiy va amaliy ahamiyatga ega. Faylasuf shaxs kamolotini faqat axloqiy fazilatlarning rivojlanishi doirasida emas, balki jamiyatning barqarorligi va taraqqiyoti uchun zarur bo'lgan asos sifatida talqin etdi. Uning konsepsiyasi praktsiologik (ya'ni, amaliy faoliyatga axloqning bog'liqligi) jihatdan bugungi zamonaviy falsafa va ijtimoiy fanlarda dolzarbdir.

Ibn Miskavayhning fikricha, har bir jamiyatning axloqiy poydevori alohida shaxslarning ma'naviy rivojlanishi bilan bog'liq. Shaxs o'z fazilatlarini rivojlantirganida, bu jarayon jamiyatdagi umumiy axloqiy

me'yorlarga ham ta'sir qiladi. U "Tahzibul axloq"da shunday deydi: "Shaxslarning axloqiy fazilatlari jamiyatning ahloqiy holatining asosidir. Agar shaxslar kamolotga erishsa, jamiyat ham uyg'unlashadi"¹. Bu yondashuv zamonaviy falsafiy paradigmalardan biri bo'lgan kommunitarizm bilan uyg'unlashadi, chunki u individual axloqiy rivojlanishni jamiyat manfaatlariga xizmat qilish sifatida talqin qiladi. Shuningdek, Ibn Miskavayh shaxs kamolotining ijtimoiy ahamiyatini liderlik va ta'sir o'tkazish nuqtai nazaridan tushuntiradi. Uning fikricha, fazilatli shaxs jamiyatdagi boshqalar uchun o'rnak bo'lib, ularni ham kamolot sari yetaklaydi. "Rahbarning axloqiy fazilatlari jamiyatda tarqaladi va umumiy adolatga zamin yaratadi"². Bugungi kundagi liderlik etikasida bu yondashuv muhim ahamiyatga ega, chunki u rahbarning nafaqat boshqaruv qobiliyatini, balki axloqiy jihatdan yuksak shaxs bo'lishini ham talab qiladi.

ASOSIY QISM

Praksiologiya – bu inson faoliyatining maqsadga muvofiqligini o'rganadigan soha bo'lib, Ibn Miskavayhning shaxs kamoloti haqidagi qarashlari bu yo'nalishda ham muhim nazariy asoslarni beradi. Faylasuf faoliyatni axloq bilan uyg'unlikda talqin etadi. U axloqni shunchaki nazariy tamoyillar emas, balki amaliy hayotning zaruriy qismi deb ko'radi. U shaxs kamoloti jarayonini shaxsiy ehtiyojlar va jamiyat talablarini uyg'unlashtirish sifatida ta'riflaydi. Bu zamonaviy deontologik axloq konsepsiyasi bilan uyg'unlashadi, chunki unda shaxsning axloqiy burchi asosiy rol o'ynaydi. Faylasuf shunday deydi: "Axloqiy fazilatlar faqat nafsiy yuksalishga emas, balki amaliy hayotda adolat, jur'at va me'yorni ta'minlashga qaratilgandir"³.

Ibn Miskavayh shaxs rivojlanishining praktsiologik jihatini o'z nafsini boshqarish va istaklarini me'yorlash orqali amalga oshirishni ta'kidlaydi. U axloqiy tarbiya va faoliyatning uyg'unligini nafsni boshqarish orqali tushuntiradi. Masalan: Nafsni poklash (تطهير النفس) – shaxsning ichki axloqiy tarbiyasi. Me'yorni saqlash (الاعتدال) – bu harakatlarda adolat va balansni saqlash deya tushuntiradi. Ya'ni buni falsafada o'zini boshqarish nazariyalari va emosional intellektga qiyoslashimiz mumkin.

Ibn Miskavayhning fikricha, shaxsiy kamolot jamiyatda axloqiy va madaniy me'yorlarning shakllanishiga ta'sir qiladi. Bu jarayon individual fazilatlarining ijtimoiy miqyosda aks etishini ta'minlaydi.

¹ Abu Ali ibn Miskavayh. Tahzibul axloq. – Bayrut: Alhayot kutubxonasi, 1961. – B. 192.)

² Qarang: o'sha asar. – B. 194.

³ Qarang: o'sha asar. – B. 195.

Mutafakkir shaxs kamolotini fazilatli jamiyatga o'tish vositasi sifatida ko'radi. Uningcha, jamiyatni axloqiy jihatdan yuksaltirish shaxslar o'rtasida bir-biriga ijobiy ta'sir ko'rsatish orqali amalga oshadi. Bu praksiologik jihatdan ijtimoiy inqirozlarni yengish va adolatli tizimlar yaratish tamoyillariga mos keladi.

Ibn Miskavayhning yondashuvi zamonaviy dialektik gumanizm bilan hamohangdir, chunki u shaxs va jamiyatni bir-birini shakllantiruvchi jarayonlar sifatida ko'radi. Shaxsning ma'suliyati shundan iboratki, u o'zining nafsini tarbiyalashi va axloqiy rivojlanishi jamiyatning taraqqiyotiga hissa qo'shadi. Jamiyat esa shaxslar uchun axloqiy rivojlanish imkoniyatlarini yaratadi.

Bugungi global muammolar kontekstida Ibn Miskavayhning praksiologik yondashuvi quyidagi jihatlarda muhimdir:

Axloqiy liderlik – jamiyatning barqarorligi va taraqqiyoti rahbarlarning axloqiy fazilatlariga bog'liq;

Ijtimoiy uyg'unlik – axloqan rivojlangan shaxslar jamiyatdagi ijtimoiy nizolarni hal qilishda asosiy rol o'ynaydi.

Ibn Miskavayhning shaxs kamoloti haqidagi konsepsiyasi jamiyat rivojlanishi uchun amaliy va nazariy asoslarni beradi. Faylasufning praksiologik yondashuvi axloqni nafaqat nazariy tushuncha, balki amaliy faoliyatning asosi sifatida talqin qiladi. Bu yondashuv zamonaviy falsafiy paradigmalarda shaxsning ijtimoiy mas'uliyati, liderlik etikasi va madaniy taraqqiyot nazariyalari uchun zamin yaratadi.

Ibn Miskavayh, Arastu izidan borib, falsafani nazariy va amaliy qismlarga ajratadi va axloqni amaliy falsafa doirasida o'rganadi. Aslida Arastu axloqni siyosiy fanga muqaddima, deb bilgan edi. Miskavayh ham axloqni siyosiy ilmlardan ajratmagan. Zero, u o'zining falsafiy-axloqiy qarashlarida inson va jamiyat, axloq va siyosatning mustahkam aloqadorligiga to'xtalib o'tgan.

Faylasufning axloqning jamiyatdagi o'rni va ahamiyati to'g'risidagi qarashlari axloqlikdan ko'ra ko'proq ijtimoiy-siyosiy ahamiyat kasb etadi. Bu borada mutafakkir o'z fikrlarini quyidagicha bayon etadi: "Garchi insonda bilim va ezgulikka intilish tabiatida bor bo'lsa-da, u to'g'ri an'analardan tez-tez og'ib turadi. Inson jismi kasallangani kabi, uning ruhi (qalbi) ham kasallikka chalinish xavfidan holi emas. Kasal jismni davolash zarur bo'lganidek, inson ruhi uchun ham ma'naviy tabib kerak. Shaxs uchun bunday tabib ustoz bo'lsa, jamiyat uchun bu – siyosatchidir"¹.

¹ Abd al-Aziz Izzat. Ibn Miskaweyh. Tahdib ul-akhlaq. – Beirut: 1966. – P. 25.

Mutafakkir Aflotun va Arastu kabi insonni “siyosiy mavjudot” deb hisoblab, shunday yozadi: “Inson qalbida yaxshi sifatlar va iste’dodlar ko’p bo’lgani sababli, u ularning hammasini ochishga qodir emas. Shuning uchun odamlar guruhi muayyan vaqtda birga yig’ilib, guruhning har bir a’zosiga boshqalarning yordami bilan insoniy komillikka erishish zarurati tug’iladi. Bunday vaqtda, ularda yaxshi sifatlar o’zaro o’xshash bo’ladi va albatta saodatga erishiladi”.

Miskavayh Aflotunning qarashlariga qo’shilgan holda, odamning qalbi, ko’ngli va dili manguligini ta’kidlagan. Masalan, “Saxiy odam-deydi Miskavayh – “Arastu axloqi”ga rioya qilgan holda, dili yuksaklikka erishgan odamzot, deb tushunadi va bu dil yoki qalb jismning qolgan qismlari va a’zolarini boshqarishi kerak” - deb tushungan. Dilning ongli tomoniga donishmandlik, g’azabli (o’tli) mardlik va o’zini tiyish kiradi.

Ibn Miskavayh mutloq va nisbiy farovonlikni bir-biridan ajratib, mutloq farovonlikni mukammallik bilan tenglashtiradi. Arastu va uning zamondoshlari – Aflotun, Suqrot, Pifagorlar qarashlariga monand ravishda Miskavayh ham inson baxt-saodatini ezgulikning to’rt ko’rinishida, ya’ni, donishmandlik, mardlik, sabrlilik va adolatda deb hisoblagan. Bu ezguliklar mutloqo tana bilan emas, balki, ruhiyat bilan bog’liq. Shuning bilan birga, xarakterdagi ijobiy fazilatlarni rivojlantiradi va yomon illatlardan xalos bo’lishiga intiladi.

Miskavayh Aflotun qarashlariga muvofiq holda ruhiyatning subtansiyasini, uni yo’qotib bo’lmasligini va u boqiy xarakterga ekanligini aytib o’tgan. U ezgulik deganda, ruhiyatning boshqa qismlariga rahbarlik qiladigan ongli qismini mukammalashuvida deb tushunadi. Shu bilan birga, ezgulik toifalariga o’tar ekan, ruhiyatning har bir qismini alohida ezgulik, deb talqin etadi va bu bilan birga Aflotun qarashlariga xayrihohlik bildiradi. Ruhiyatning ongli qismi donishmandlikka, darg’azab qismi esa, tiyilish(sabr qilish)ga muvofiq keladi. Adolat atalmish to’rtinchi qism esa, yuqoridagi uchta qismning uyg’unlashuvidir. Uning ta’kidlashicha, ezguliklarning har biri Arastu ta’limotiga ko’ra, ikki qism – yaxshilik va yomonlik oralig’ida aniqlanadi. Ibn Miskavayh “Hikmat al-xolida” asaridagi “Fi mohiyat al-adl” (Adolatning mavjudligi) xususidagi bayonida esa, adolat Arastu singari tenglik va aniq taqsimot sifatida tushuniladi¹. Shuningdek, Miskavayh, do’stlikning tadqiq etishga ham alohida e’tibor qaratadi. Bu tushunchani, Arastuning “philia” va Aflotunning “etos” tushunchalari bilan qiyoslash lozim. Ayniqsa birinchisi bilan odamlar o’rtasidagi do’stlik ortida rohat farovonlik, naf ko’rish maqsadi yotadi. Buning

¹ Abd al-Aziz Izzat. Ibn Miskaweyh. Al-Khikmat al-holida. – Beirut: 1952. – P. 120-121.

uchun elementlarning birlashuvi ularning o'zaro uyg'unlashuvini ta'minlashga xizmat qiladigan matematik taqsimlarga asoslanadi. Eng yuksak rohat ong bilan bog'liq bo'lib, tanadan xolis holda ham kuchlik muhabbatni his etishga qobil. Barcha tan bog'liqliklaridan ongli substansiyani tozalanishi va anglash mukammallashuviga erishish ilohiy dunyo bilan qo'shilish, poklanish, adolat xususiyati to'g'risidagi kitoblarda qisman aks ettirilgan.

Miskavayh farovonlik, yaxshilik, adolat va boshqa etik masalalarni antik davr an'analariga tayangan holda ko'rib chiqadi. U ana shu barcha toifalarni bir-biri bilan ajralmas holda bog'laydi. Uning bu qarashlariga Aflotunning "mutloq farovonlik" to'g'risidagi tushunchalari singdirilgan "mutloq birlik" ta'limoti katta ta'sir ko'rsatgan. Faqat uning fikricha, bunga nisbatan "hayoliy borliq" to'g'risidagina fikrlash mumkin. Miskavayh fikriga ko'ra, sof yaxshilik – borliq deganidir. Ya'ni, har bir insonning borlig'i uning hayoti davomidagi bajargan amallarida namoyon bo'ladi. Sof yaxshilik farovonlik va turli kashfiyotlar hosilasida paydo bo'lgan bo'lib, bu birlikning yemirilishiga sabab bo'ladigan yomonlikka qarama-qarshi turadi. Agar yaxshilik borliq deyilsa, yomonlik uning aksi, ya'ni yo'qlikni anglatadi. Masalan, hastalik yomonlikdir va u salomatlikning yo'qolishiga ya'ni, yetishmasligiga olib keladi. Yomonlikning manbai o'zida mutloq ko'plikni aks ettirgan norasmiy boshlang'ich materiya hisoblanadi. Shunday qilib, yomonlikning boshi va uning manbaiga qarama-qarshi bo'lgan yaxshilik materiyaga hayot bahsh etib, yaxshilikning boshi va uning manbai-borliqida o'z shakliga ega bo'ladi.

Jism uchta o'lchovga ega bo'lib, ular tabiiy ta'sirlar natijasida paydo bo'ladi, rivojlanadi yoki aksincha nobud bo'ladi va yo'qoladi. Shuning uchun ham u ko'plikdan iborat bo'lib, haqqoniy borliqdan yiroq bo'ladi. Ammo qachonki, oddiylikka yaqinlashgan holatda borliq bilan uyg'unlashishi mumkin. Misol uchun, oddiy tabiatdan hosil bo'lgan fazoviy jism yerdagi jismga nisbatan ko'proq mutloq borliqqa ega bo'ladi.

Yerdagi jismlar o'rtasida og'irlik va jipslashuv o'rnatilgan holatda fazoviy borliq kabi hayotlikka ega bo'ladi. Inson eng murakkab mavjudot bo'lishiga qaramay, undagi umumiy his-tuyg'ular – ezgulik va yaxshilik tuyg'ulari orqali buyuk baxtga ega bo'ladi, hamda oniy va foniy dunyoga erishadi. Bunday dastlabki birlashtiruvchi jamiyat bo'lib, u ezguliklar, adolatni yuzaga keltirishga sabab bo'lib, farovon va yaxshi yashash turmush tarziga olib keladi¹.

¹ Abd al-Aziz Izzat. Ibn Miskaweyh. Tahdib ul-akhlaq. – Beirut: 1966. – P. 61.

Adolat bu to'rtinchi saxiylik bo'lib, qolgan uch saxiy hislatlarning eng barkamolidir. Adolatga qo'shimcha ravishda do'stlikni ham ulug'laydi. Yana alohida ta'kidlash lozimki, uning adolatli xukmdor haqidagi qarashlari diqqatga sazovordir. Uning fikricha, "Rahbar raisning fazilatli odamlarni rozi qilish, ularga g'amxo'rlik qilish, mehribonlik ko'rsata olish imkoniyatida namoyon bo'ladi. Bu axloqlikdir. O'zgalarning hayotini yaxshilash, ularga hamdard bo'lish, rais (xukmdor) axloqini belgilaydi". Bu jumla "muallimi soniy" Abu Nasr Forobiyning fazilatli ideal jamiyat haqidagi, "Bunday jamoaning boshidan aqliy, axloqiy fazilatlarini o'zida mujassamlashtirgan rahbar turadi. Bu rahbar o'z fazilatlarini jihatidan ideal jamoa a'zolaridan eng kamol topgan shaxsidir" degan jumlasiga to'ldirish va qo'shimcha fikr edi. Bu kalom "Abu Nasr Forobiy" qismidan parcha edi¹.

"Inson barcha mavjudotlar orasida o'zini mukammallashtirishga urinar ekan, albatta bu borada faqat o'z nafi bilan kifoyalanmaydi, hatto qoniqmaydi, bunda unga jamiyatning ko'plab boshqa a'zolarining hamkorligi qo'l keladi". Natijada, inson hayoti o'zgalar ko'magi bilan yaxshi tomonga o'zgaradi, ishining rivoji ilgarilaydi. Zero, donolar aytadilarki: "Inson tabiatan madaniy xilqatdir, u tabiatan insoniy saodat mukammal bo'ladigan shaharlarga intiladi, har bir inson tabiati va zaruratga binoan o'zga bir insonga muhtoj bo'ladi, shuning uchun ham inson o'zga insonlar bilan xaqiqiy munosabatda bo'lishga, ular bilan go'zal holatda do'st tutinishga, ularni chin dildan sevishga majbur bo'ladi. Zero, o'zga odamlar yordamida u o'z nafsini mukammallashtiradi, insoniylikning nihoyasiga yetadi. Oqibatda uning o'zi ham o'zgalar bilan shunday munosabatda bo'ladi. Agar inson tabiati va zarurat shuni taqozo etar ekan, yana qanday qilib aqlli va bilimdon inson tanholik va yolg'izlikka intilishi mumkin?"². Va bu bilan faylasuf tarkidunyochilikni qoralaydi.

Binobarin, inson o'zga insonlarda ko'rgan fazilatlarini o'zlashtirib oladi. Agar zuhd va tanholikni afzal bilib, odamlar bilan aloqasini uzgan, ulardan holi bo'lgan, tog'lardagi g'orlarda, biyobonlardagi chaylalarda oshyon tutgan, dunyo kezib yurgan odam jamiyatlar va odamlar uchun odat tusiga kirgan fazilatlardan birontasini ham o'zida namoyon eta olmaydi. Binobarin, odamlarga aralashmagan, ular bilan birga shaharlarda yashamagan odam donishmandlikdan ham, jiddiylikdan kam, adolatdan ham mosuvo bo'ladi. Uning amalga oshirgan barcha harakatlari, urinishlari besamar ketadi. Chunki, unday kimsalar na

¹ Abd al-Aziz Izzat. Ibn Miskaweyh. Al-Khikmat al-holida. – Beirut: 1952. – P. 285-290.

² Abd al-Aziz Izzat. Ibn Miskaweyh. Tahdib ul-akhlaq. – Beirut: 1966. – P. 63.

yaxshilik tomon, na yomonlik tomon yuz tutadilar. Natijada umri besamar ketib, o'ziga xos faoliyatlardan mosuvo bo'lgan bunday odamlarning jamiyat ichidagi muzlatilgan va o'lik narsalardan farqi kolmaydi.

“Tibbiyot fanlari va al-kimyoy” bilan shug'ullanuvchilarni burchlari – muttasil mehnat qilish, tajribalar o'tkazishdir. Ilm faqat shu yo'l bilangina qo'lga kiritiladi. U shuningdek, birinchilardan bo'lib, sun'iy ravishda tirik mavjudotlarni “yaratish mumkinligi” g'oyasini ham ilgari surgan.

Bu borada ba'zi olimlarning fikriga ko'ra, bunday odamlar bir jihatdan avf etilgan va adolatli bo'lsalar, ikkinchi tomondan avf etilmagan va adolatsiz kimsalardir. Mazkur narsa boshqa fazilatlarga ham tegishlidir¹. Ya'ni, ular unday odamlardan fazilatlarga qarama-qarshi bo'lgan yomonliklar namoyon bo'lmasa, odamlar ularni fozil deb o'ylaydilar. Fazilatlar esa aslo yo'q bo'lib ketmaydi, ular odamlarning o'zaro munosabati, yashash joylari, muomalalari, ijtimoiy birikmalarida vujudga keladigan faoliyatlar va amallar bilan chambarchas bog'lanib ketadi. Biz esa bo'larni bilamiz, ijtimoiy hayotdagi insoniy fazilatlarni o'rganamiz, ular bilan aralashib ketamiz, ulardan yetgan turli ozorlarga sabr qilamiz.

Faylasufning ilm-fanni o'rganishning hozirda muhim ahamiyat kasb etadigan va rivojlantirish usullarini ishlab chiqqanligi diqqatga sazovordir. Shulardan biri, nazariyani amaliyotda qo'llash orqali uni xaqiqatiga yetishdir. “Agar birinchi nazariy kamolot tasavvur qilinadigan suratdan iborat manzilga ega bo'lsa, ikkinchi amaliy kamolotning manzili moddiy manzildan iboratdir. Bu ikki kamolot bir-birlarini to'ldirishi bilangina mukammal bo'ladi. Zero, ilmni narsaning ibtidosi deb oladigan bo'lsak, amal uning intihosidir. Binobarin, intihosiz tugagan ibtido zoe ketadi, ibtidosiz intiho esa mavjud bo'la olmaydi (“Hind hikmatlari” bo'limidan)”².

Mana shu ikki narsadan iborat mohiyat biz insonlar uchun buyuk maqsad deb atagan kamolotdir. Ya'ni, maqsad va kamolot o'z tuzilishiga ko'ra bitta narsadir. Ular faqat bir-birlariga qo'shilishlari bilan farq qiladi. Agar unga nazar tashlaydigan bo'lsak, u nafsdan uzoq bo'ladi, fe'l-atvor(harakat)da namoyon bo'lmaydi, mana shu narsa maqsad bo'ladi. Agar fe'l-atvorda namoyon bo'lsa, va intiho topsa, bu kamolot bo'ladi. Biz har bir narsada shu holatni kuzatishimiz mumkin.

¹ Abdulkadir Ş., İsmet K., Cihat T. İbn Miskeveyh Ahlâk Eğitimi: Tehzîbu'l-Ahlâk. – İstanbul: 5. Baskı: Ocak 2022. – S. 139.

² Abd al-Aziz Izzat. İbn Miskaweyh. Al-Khikmat al-holida. – Beirut., 1952. – P. 299.

Masalan, uying holati, uning qismlari, tarkibi va boshqa holatlari binokor uchun chizilgan, tayyorlangan bo'lsa mana shu maqsad bo'ladi. Agar bu maqsad uning fe'li(harakati)da namoyon bo'lsa va intiho topsa, bu kamolot bo'ladi. Biz zikr qilgan narsalardan ayon bo'ladiki, inson o'z kamolotiga erishadi, unda o'ziga xos fe'l-atvor namoyon bo'ladi.

Olimning borliqni o'rganishida uning qarashlariga nafaqat yunon balki, hind ilmlarining ta'sirini ham sezish mumkin. Masalan, inson barcha mavjudot yoki narsalarni o'rganadigan bo'lsa, faqatgina ularning ko'rinishlarinigina emas, balki ularning barcha qism va tomonlari, ularga tus berib turgan intihosiz xususiyatlarini ham bilib oladi. Zero, inson bularning borliqlarini bilib olar ekan, ularning qismlari, taraflari, xususiyatlari va shu kabi boshqa narsalarini ham bilib olgan bo'ladi. Zero, qismlar hech qachon borliqdan tashqarida bo'lmaydi. Agar inson o'zidagi ushbu kamolotni yanada mukammallashtira olsa, uni oldindan belgilab qo'yilgan fe'l bilan mukammallashtiradi, o'zidagi quvvat va malakalarni ilmi vositasida tartib va ilmiy jihatdan tartiblab chiqadi. Agar inson mana shunday tartiblashni yaxshi o'zlashtirib olgan bo'lsa, dunyoda tanho olimga aylanadi, kichik olim deb nomlanishga munosib bo'ladi¹. Zero, barcha mavjudotlar va narsalarning suratlari unda mujassam bo'lgan bo'ladi, inson ularga va shu kabi boshqa narsalarga aylanadi, ularni o'z ishi bilan toqati yetganicha tartiblab chiqadi. Barcha mavjudotlarning Yaratuvchisi buyukdir, bu ochiq-oydin namoyondir, bu borada xato qilish mumkin emas. Agar inson dastlabki xukmiy tartibidan tashqariga chikib ketmasa, mutloq olamga aylanadi.

Mavjudot va narsalar doimiy mavjuddir, doimiy mavjudlik esa abadiy boqiylikdir. Mazkur holatda esa inson shak-shubhasiz to'g'ri va baxtli hayotga erishishi muqarrar, zero u o'zidagi kamolot bilan Allohdan doimo abadiy fayzni qabul qilib olishga tayyor turadi. O'z Robbisiga shunchalik yaqinlashadiki, ular o'rtasida hech qanday to'siq halal bera olmaydi. Bu esa oliy martaba va eng oxirgi saodat hisoblanadi. Agar odamlar ichida faqat bitta odam ushbu manzilni o'zida mujassam etishi va bu bilan o'z suratini mukammallashtirishi, uning vositasida rivojlanish jarayonida o'z nuqsonlariga barham berishi mumkin bo'lmaganida edi, inson yo'lining boshqa hayvonlar yoki yo'qlikka yuz tutayotgan o'simliklar yo'lidan hech bir farqi kolmagan bo'lar edi. Yo'qotish mushkul bo'lgan nuqsonlar natijasida abadiy boqiylik, mangy baxtli hayot hamda Allohga yetishish, uning jannatiga kirish amrimahol ishga aylangan bo'lardi. Agar inson mana shu holatni

¹ Abd al-Aziz Izzat. Ibn Miskaweyh. Al-Khikmat al-holida. – Beirut., 1952. – P. 101.

tasavvur qila olmasa, ilmda o'rta bo'lgan odamlardan bu uning ilmini o'zlashtirib olmasa, unday inson shubhalar girdobiga tushib qoladi. Agar insonning jismoniy tuzilishi izdan chiqib ketsa, bunday inson o'zini xuddi boshqa hayvonlar va o'simliklarda uchragani kabi barham bo'lgan va umri tugagan deb gymon qiladi. Bunday gymonga borgan odam albatta Xudosiz sanaladi va hikmat, sunnat, shariatdan mosuvo bo'ladi.

Bu fikrga ko'ra, insonning kamoloti va insoniylik chegarasi hissiydir, binobarin bu tushuncha insonlar tomonidan talab qilingan yaxshilik va cheksiz saodatdir. Insonning qolgan barcha quvvatlari mazkur tushuncha hamda unga yetishishga urinish tufayliga insonda mujassam bo'ladi.

Biz yuqorida aqlli deb atagan nafs esa, insonlarga mukofot qilib berilgan bo'ladi. Uning vositasida inson o'z fe'llarini tartiblab chiqish va ularni belgilab olish bilan mashg'ul bo'ladi. So'ngra mazkur fe'llarni oxirgi chegara bo'lishi uchun yuqoridagi tushuncha tomon yunaltiradi. Bu esa insonning so'nggi nihoya va chegarani zabt etishidir. Ularning fikriga ko'ra, aqlli nafsning quvvatlari, ya'ni xotira, eslash qobiliyati, mushohada kabi narsalarning barchasi mazkur intiho va so'nggi chegara uchun yaratilgandir. Ular aytadilarki: "Agar inson o'z nafsida taom, ichimlik va ayollardan hosil bo'ladigan lazzatlarni eslab qolsa, ularga yana ishtiyiq sezadi, ularni yana qayta takrorlanishini xohlaydi"¹.

Eslash qobiliyati va xotiraning manfaati mana shu lazzat va uni egallashdan iborat bo'lib qoladi. Inson o'z hayoliga kelgan ushbu o'ylar tufayli jirkanch bandalar kabi afzal va sharfli bo'lgan nafsni ehtirosli istaklar domida o'zining taomlar, ichimliklar va ayollarga bo'lgan talablari yulida ularni tartiblab chiqib, o'zi uchun muvofiqlashtirib berishga xizmat qiladigan mulozimga aylantirib qo'yadi. Binobarin, bu ko'pchilik odamlarning, avom va johil odamlarning ham fikridir.

Odamlarning insoniylik chegaralari ularning qilgan yaxshiliklari, jannatni zikr qilishlari va Allohga yaqinlashishlari bilan shavqqa to'lib ketadi. Bu narsani esa insonlar agar ibodat yuliga kirib, dunyoni tark etsalar, o'z Robbilaridan duolar va ibodatlarida so'raydilar. Mana shunday insonlar xuddi savdo-sotik va oldi-berdi yo'lga kirgan odamlarga o'xshaydi. Zero, ko'p narsalarga yetishish yo'lida ham narsalarni tark etadilar, boqiy narsalarga erishish uchun foniyy narsalardan voz kechadilar. Ularda mana shunday e'tiqod va fe'llar

¹ Abdulkadir Ş., İsmet K., Cihat T. İbn Miskeveyh Ahlâk Eğitimi: Tehzîbu'l-Ahlâk. – İstanbul: 5. Baskı: Ocak 2022. – S. 143.

mujassam bo'lgan bo'ladi. Agar mana shunday insonlar huzurida farishtalar, oliy va sharafli xilqatlar hamda Alloh ularga qabih ishlar orasidan pok qilib bergan narsalar zikr qilinadigan bo'lsa, ular bir jumla bilan o'zlarini Allohga yaqinroq va boshqa odamlardan martaba jihatdan o'zlarini oliyroq deb hisoblaydilar. Ular biladilarki, o'zlarining yaratuvchisi bo'lmish barcha narsalarning ijodkori bo'lgan zot mazkur narsalardan pokdir, ulardan oliy bo'lgan, lazzat va o'z ijodidan rohatlanish kabi ssfatlardan yiroq bo'lgan Zotdir.

Odamlar lazzatlanish borasida qo'ng'izlar, qurtlar, hashoratlar va kichik hayvonlardan farq qilmaydilar. Farishtalar bilan aql va fazilat borasida raqobat qiladilar. Natijada mazkur e'tiqod va avvalgi e'tiqodlari orasida jam bo'ladi. Bu esa ajablanish va ajablantirish mohiyatidir. Insonlar o'z boshlariga tushadigan ochlik, yalang'ochlik, yetishmovchilik va boshqa nuqsonlari bilan bog'lik zaruratlarini ro'yi-rost ko'radilar. Agar mazkur ofatlar ularda o'z asoratlarini qoldiradigan bo'lsa, ulardan himoya qilishi mumkin bo'lgan narsalarga bo'lgan ehtiyojlarini ham aniq ko'radilar, ushbu ehtiyojlar natijasida yaxshi holatiga qaytadilar va asoratlardan shifo topadilar.

Rohatlanishdan lazzat topadilar, bilmaydilarki, ular agar taomlarning lazzatiga muhtoj bo'lgan bo'lsalar, eng avvalo ochlik dardiga mushtoj bo'lgan bo'ladilar. Zero, agar ular ochlik dardidan tatib kurmagan bo'lsalar, taom lazzatini ham his eta olmaydilar. Mazkur holatni boshqa lazzat tyrlarida ham ko'rishimiz mumkin, faqat bu narsa ba'zi narsalarda yanada ravshanroq namoyon bo'ladi.

Biz aytamizki, barcha narsalarning surati bittadir. Zero, barcha lazzatlar insonlar boshiga tushadigan dardlardan keyingina hosil bo'ladi. chunki, lazzat bu dard so'nggidagi rohatdir. Agar barcha lazzatlar hissiy bo'lganida edi, u mazkur o'rindan boshqa yerda dard yoki aziyatdan halos bo'lgan bo'lardi. Bizga ayon bo'lishicha, kimki o'z nafsida badan lazzatlari mujassam bo'lishiga rozi bo'lsa, uni o'z insoniy chegarasi va yuksak saodatiga aylantirsa, unday odam eng kichik hoja uchun ham eng past banda bo'lishga ham rozi bo'ladi. Zero, bunday insonlar farishtalarga munosib sharafli nafsini to'ng'iz, qo'ng'iz va qurtlardan farqi yo'q past tabaqali hayvonlarga munosib past nafs uchun qulga aylantiradi.

Jolinus o'zining "Nafs xulqlari" deb nomlangan kitobida mazkur qarashdan ajablangan¹. U ko'p bora mazkur qavmni omi deb hisoblagan. Uning fikriga ko'ra, mazkur yomon va qabih siyratli nodon insonlar agar mazkur qarash va mazhabga tegishli insonlarni uchratadigan bo'lsalar,

¹ Zurayk C. Taharet al-'araq by Miskaweyh. – London: 1968. – P. 235.

ularga yordam beradilar, ularni maqtaydilar, ularni o'zlariga da'vat etadilar. Bu bilan ular o'zlarini ushbu tariqatga tegishli yagona qavm emas ekanligini isbotlamoqchi bo'ladilar. Zero, ularning fikriga ko'ra, agar insonlar orasidagi fazl ahli va oliy tabaqaga mansub odamlar o'zlarining mavqei bilan tavsiflanadigan bo'lsa, bu narsa ular uchun uzrlidir, o'zlariniki kabi tariqatda bo'lgan boshqa qavmlar uchun esa yolg'ondir. Bunday odamlar o'zlarini ishontirishlaridan tashqari yoshlarni ham buzib yuboradilar¹. Shunday qilib, ularning fikriga ko'ra, fazilat bu badanning rohat istovchi tabiati da'vat etadigan narsa, o'zlashtirilgan boshqa fazilatlar esa yoki botil hisoblanadi, yoki umuman namoyon bo'lmaydi, yoki odamlarning birontasida namoyon bo'lishi ham mumkin bo'lmaydi. Insonlar uz jismoniy tabiatiga ko'ra ehtirosli istaklarga moyildirlar, bunday odamlarning ortlaridan ergashuvchilar ko'p bo'ladi. Fozillari esa kam bo'ladi. Agar odamlar asta-sekin ushbu lazzatlarni badan uchun zarurat ekanligini hamda badani bir-biriga zid mazkur tabiatlardan, ya'ni harorat va sovuqlik, quruqlik va rutubatdan tuzilganligini tushunib yetishsa, ular albatta halokat chog'ida yuz beradigan kasalliklarni yegylik va ichimliklar bilan davolaydilar. Mumkin bo'lgan darajada ularning tarkibini bir holatda eslab qolishga harakat qiladi. Zero, kasallikning davosi mutloq saodat emasdir, kasallikdan so'ng tuzalib tin olish esa benihoya talab qilingan narsa va mutloq yaxshilik emasdir. Zero, mutloq baxtli kimsada hech qachon kasallik namoyon bo'lmaydi². Shu bilan birga ayon bo'ladiki, Alloh o'ziga yaqin qilgan farishtalar ham ushbu dardlarga duchor bo'lmaydi. Ular kasalliklarni taom, ichimliklar bilan davolashga muhtoj bo'lmaydilar.

Binobarin, Alloh ham ushbu sifatlardan pok va oliydir. Ba'zi odamlar esa mazkur qarashga qarshi fikr bildirib, ba'zi odamlarni farishtalardan ham sharafli ekanligini aytib o'tganlar. Zero, Alloh xilqatga taalluqli narsalardan buyukdir. Ba'zi-bir odamlar bunga qarshi chiqib, mazkur qarashni nodonlik deb hisoblaydilar, uni botil va shubhali deb topadilar. Natijada o'zlari tushunib yetgan va aqlari ko'rsatib bergan narsaning to'g'riligiga ham shubha bilan qaray boshlaydilar. Ajablanarli joyi shundaki, ularning ushbu qarashlari hech qachon nihon topmaydi. Agar insonlar orasidan o'zlari moyil bo'lgan tariqatdan voz kechgan, lazzat, rohatni arzimas narsa deb biladigan, ro'za tutgan chog'da yerda o'sadigan has-cho'plar bilan

¹ Abdulkadir Ş., İsmet K., Cihat T. İbn Miskeveyh Ahlâk Eğitimi: Tehzîbu'l-Ahlâk. – İstanbul: 5. Baskı: Ocak 2022. – S. 150.

² Abdulkadir Ş., İsmet K., Cihat T. İbn Miskeveyh Ahlâk Eğitimi: Tehzîbu'l-Ahlâk. – İstanbul: 5. Baskı: Ocak 2022. – S. 139.

qanoatlanadigan va hokisor kishini topsalar, uni ulug' biladilar, undan taajublari ortadi, uni buyuk martabalarga loyiq deb topadi, uni Allohning do'sti, farishtalarga o'xshash, bashardan yukori tabaqaga mansub deb da'vo qiladilar, unga itoat etadilar, uning oldida o'zlarini g'oyatda past tutadilar, o'zlarini unga nisbatan bechora deb hisoblaydilar. Buning sababi shuki, ularning qarashlari agar kuchsiz va tentakona bo'lsa, agar ularning ichida mazkur sharaflari va oliy quvvatga dahldor biron narsa bo'lsa, o'zlari fazilat deb bilgan narsalari zaif bo'lib chiqsa, o'zgalarni ulug'lash va hurmatlashga majbur bo'ladilar.

Uning axloq haqidagi fikrlari — bu oddiy axloqiy mulohazalar emas, balki falsafiy-metodik asosga ega tahlil bo'lib, u orqali olinadigan xulosa ham falsafiy xarakter kasb etadi. Miskavayh bu jihatdan o'z yondashuvini axloq masalasida chuqur fikr yuritgan tasavvuf va irfon vakillaridan ham, shariatni faqat zohiriy doirada talqin qiladigan kishilardan ham ajratib ko'rsatadi.

Miskavayh amaliy axloq, go'zal xulq va insoniy komillikka erishish muammolarini alohida o'rganadi. U individual axloqiy me'yorlar bilan universal axloqiy qoidalarni farqlashga katta ahamiyat qaratadi. Shuningdek, u axloqiy tarbiya maqsadiga ko'ra, uning mazmuni shaxsning o'zini, qobiliyatlarini, sifatlarini, kamolot va imkoniyat chegaralarini bilishdan boshlanadi degan fikrni ilgari suradi. Chunki, Ibn Miskavayh fikricha, axloqiy tarbiyadan maqsad inson qalbida go'zal odob-axloqni shakllantirishdan iborat va shunga ko'ra, unda ezgu amallar mashaqqatsiz kelib chiqadi. Ibn Miskavayh axloq qalbimizda qaror topishi uchun avvalo ruh nima ekanligini va u nima uchun yaratilganini bilishimiz kerakligini aytadi. Insonlar o'z qalbining komilligini, istak va maqsadlarini bilsalar, yuksak ma'naviy darajalarga erishadilar. Ushbu maqsadga erishish uchun bola yoki kattalar o'zining kuchlari (qobiliyat va imkoniyatlari) va xususiyatlarini o'rganishi kerak. Shu bilan birga tanani ham, ruhni ham tarbiyalash zarur. Birini biron narsaga o'rgatayotganda, ikkinchisini e'tiborsiz qoldirmaslik kerak. Agar siz faqat tanani mashq qildirsangiz, ongni tana xizmatiga qo'yishi lozim¹. Miskavayh inson o'z shaxsiyatini tarbiyalashda, rivojlantirishda muntazamlilik va tartibni ilgari suradi. U fikrini davom ettirib, "Tananing asosiy ehtiyojlari qondirilishi kerak. Aqliy o'lchovni tarbiyalashda sezgilardan foydalanishda ortiqchalik yoki kamchilikka olib keladigan ruhiy kasalliklarning oldini olish, me'yor amal qilish, tafakkur ruhini rivojlantirishga harakat qilish

¹ Beheşti M. İbn Miskeveyh'in Eğitim, Öğretim ve Temelleri Üzerine Görüşleri // Misbah: İslamî Düşünce ve Araştırma Dergisi, cilt: III, sayı: 9. – Ankara: 2014. – S. 134.

lozim”¹ ligini uqtiradi. Va insonga o‘zligini va tabiatini bilish imkonini beradigan va uni boshqa mavjudotlardan ajratib turadigan xususiyat - bu fikrlash va farqlash qobiliyatidir. Shaxs o‘zining fikrlash va farqlash qobiliyatini qanchalik rivojlantirsa, u insoniylik va ezgulik bo‘yicha hamkasblaridan ustun turadi. Shu bilan birga, insonning fikrlash va farqlash qobiliyati uning o‘z nafsini nazorat qila olishi va uni o‘z maqsadidan chalg‘itadigan narsalardan, ya‘ni moddiy masalalardan, his-tuyg‘ulardan uzoq turishi kerakligini aytadi.

XULOSA

Ibn Miskavayhning shaxs kamoloti haqidagi qarashlari falsafiy va praktsiologik jihatdan chuqur va ko‘p qirrali yondashuvni taqdim etadi. Faylasuf shaxsning ichki ma‘naviy tarbiyasi va nafsni boshqarishni jamiyat taraqqiyotining asosiy sharti sifatida ko‘radi. Bu yondashuvdan kelib chiqib, axloqiy yetuklikning faqat individual o‘z-o‘zini rivojlantirish emas, balki jamiyatning umumiy axloqiy va ijtimoiy barqarorligini ta‘minlash uchun zarur ekanini anglash mumkin. Zamonaviy global inqirozlar sharoitida bu yondashuv axloqiy liderlik va ijtimoiy mas‘uliyat masalalarini hal qilish uchun dolzarbdir. Faylasufning qarashlari shaxs va jamiyat o‘rtasidagi dialektik munosabatlarni yoritadi. Jamiyat shaxsning axloqiy tarbiyasi uchun zamin yaratadi, shaxs esa jamiyatning axloqiy darajasini yuksaltiradi. Bu jarayonni zamonaviy falsafada “o‘zaro bog‘liqlik etikasi” deb atash mumkin. Bunda individual va kollektiv kamolot o‘zaro integratsiya orqali amalga oshadi.

Ibn Miskavayh shaxs kamolotini faqat nazariy tamoyillar orqali emas, balki amaliy faoliyat orqali ham amalga oshishini ta‘kidlaydi. Axloqiy tamoyillarni hayotda qo‘llash jarayoni faoliyatda me‘yorni saqlashni, o‘z nafsini boshqarish va adolatni ta‘minlashni talab qiladi. Bugungi davrda bu fikrning amaliy qiymati o‘zini boshqarish qobiliyatlari (self-discipline), ijtimoiy uyg‘unlik va ijtimoiy adolatni saqlash strategiyalarida namoyon bo‘ladi.

Ibn Miskavayhning fazilatli shaxs modeli ijtimoiy transformatsiyaning negizi hisoblanadi. Shaxslar jamiyatdagi axloqiy me‘yorlarni qayta shakllantirishda faol ishtirok etadi. Bu fikr ijtimoiy liderlik, ijtimoiy inqirozlarni hal qilish va madaniy o‘zgarishlarni amalga oshirish masalalarida ahamiyatlidir. Zamonaviy dunyoda liderlik, xalqaro munosabatlar va siyosiy barqarorlik uchun bu konsepsiyaning foydali ekanini ko‘rib turibmiz.

¹ Qarang: o‘sha yerda. – S. 138-139.

Ibn Miskavayhning konsepsiyasi shaxs rivojlanishi va jamiyat taraqqiyoti o'rtasidagi bog'liqlikni yoritish orqali o'z davridan ancha ilg'or fikrlarni bayon qiladi. Ushbu konsepsiya ijtimoiy ahamiyati va praktsiologik yo'nalishi bilan nafaqat o'z davri, balki zamonaviy davr ehtiyojlariga ham javob beradi. Uning fikrlariga asoslangan holda milliy va global muammolarni hal qilishda axloqiy yetakchilik, kollektiv manfaatlar va ma'naviy uyg'unlikka intilish zarurligi isbotlanadi. Bu yondashuv zamonaviy falsafaning ijtimoiy-etika, liderlik va axloqiy rivojlanish nazariyalarini boyitadi va jamiyatni barqaror rivojlantirish uchun muhim g'oyalarni taqdim etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. أبو علي بن مسكويه . تهذيب الأخلاق . - بيروت: مكتبة الحياة 1961 - 196 ص (Abu Ali ibn Miskavayh. Tahzibul axloq. – Bayrut: Alhayot kutubxonasi, 1961. – 196 b.)
2. Abd al-Aziz Izzat. Ibn Miskaweyh. Tahdib ul-akhlaq. – Beirut: 1966. – P. 63.
3. Abd al-Aziz Izzat. Ibn Miskaweyh. Al-Khikmat al-holida. – Beirut: 1952. – P. 285-290.
4. İbn Miskeveyh. Ahlâk Eğitimi: Tehzîbu'l-Ahlâk. / Çev. Abdulkadir Ş., İsmet K., Cihat T. – İstanbul: 5. Baskı: Ocak 2022. – 264 s.
5. Zurayk C. Taharet al-'araq by Miskaweyh. – London: 1968. – P. 280 pp.
6. Beheşti M. İbn Miskeveyh'in Eğitimi, Öğretim ve Temelleri Üzerine Görüşleri // Misbah: İslamî Düşünce ve Araştırma Dergisi, cilt: III, sayı: 9. – Ankara: 2014. – S. 134.

Abirov V. Anthropological approaches to the study of tangible cultural heritage traditions.....	467
Abirov V., Nazarov M. Traditional men’s clothing and its socio-cultural expression (on the example of 20th-century Central Asia).....	478
Botirova D. Psychological analysis of developing aesthetic taste and creative ability (on the example of pottery art).....	490
Shosaidov A. Information on the traditional economic culture of the peoples of Central Asia in archival documents.....	495
Isakov R. On research into the social structure of the Uzbeks in the Amudarya delta (based on the materials of the Khorezm archaeological-ethnographic expedition).....	502
Nursoatov S. Interpretation of family crafts in Turan in the middle ages (based on “Travels of Ibn Battuta”).....	510
Avloqulov B. Methodology for creating a national digital catalog of intangible cultural heritage objects in Uzbekistan.....	516

SESSION №5

KEY DIRECTIONS IN EASTERN PHILOSOPHY AND CULTURE

Kodirov M. The formation of islamic sources and sciences in Eastern civilization.....	523
Izzetova E., Omonova M. Social-cultural identity as a factor of intercultural communication (on the example of Japan).....	530
Saydalieva N. The role of Farabi in the cultural and civilizational unification of the peoples of the East.....	541
Kashmeri M. Bhagavad Gita as a bridge: historical and philosophical encounters between Bharat and Central Asian civilizations.....	548
Sulaymonov J. Analysis of factors affecting social development in Ibn Khaldun's "Muqaddima"	565
Ikramova I. Comparative study of the philosophical views of Ibn Rushd and Thomas Aquinas.....	571
Jurayev Sh. The global significance of Ibn Sina’s scientific legacy.....	580
Sulaymonova Sh. Social significance and praxiological aspects of Ibn Miskawayh's concept of personal performance.....	589
Ismoilov Sh. Navigating the depths of Iqbal’s philosophy: a socio-religious voyage.....	603
Jurayev M. Religious-ideological environment and scientific centers of Maverannahr in the 9th–10th centuries.....	613
Mardonova M. Jaloliddin Rumi and western scholars shared ideas on spiritual existence: the development of their views on society.....	620
Abdufattayeva Sh. The idea of islamic reform in the worldview of Fitr’at.....	626